



UDK: 159.9:37.015.3(575.1)

**Madina MAMADALIYEVA,**

*Ma'mun-Universiteti NTM o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*E-mail: m.madinaa1987@gmail.com, ORCID: 0009-0007-3621-259X*

*PhD, dotsent M. Navruzova taqrizi asosida*

### PEDAGOGIK DISKURSNING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogik diskursning kommunikativ xususiyatlari, uning lingvistik, sotsial, psixologik va pragmatik tomonlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Diskurs va matn tushunchalarining o'zaro farqlari, pedagogik diskursning institutsional jarayon sifatidagi tabiati, u orqali amalga oshiriladigan kommunikativ strategiyalar tizimi yoritiladi. Shuningdek, pedagogik diskursning an'anaviy va nonstandart xususiyatlari, verbal va neverbal semiotik vositalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik diskursning ta'lim jarayonini tashkil etish, bilimni yetkazish va shaxsni rivojlantirishdagi o'rnini aniqlab beradi.

**Kalit so'zlar:** Diskurs, pedagogik diskurs, kommunikativ strategiyalar, institutsional muloqot, an'anaviylik, nonstandartlik, semiotika.

### COMMUNICATIVE CHARACTERISTICS OF PEDAGOGICAL DISCOURSE

Annotation

This article analyzes the communicative features of pedagogical discourse, focusing on its linguistic, social, psychological, and pragmatic characteristics. It examines the distinctions between discourse and text and conceptualizes pedagogical discourse as a form of institutional communication that regulates teacher-student interaction. The study highlights key communicative strategies within pedagogical discourse and discusses its traditional and non-standard features, as well as its verbal and non-verbal semiotic resources. The findings demonstrate the importance of pedagogical discourse in organizing the educational process, transmitting knowledge, and fostering the personal development of learners.

**Key words:** Pedagogical discourse, communication strategies, institutional communication, verbal and non-verbal means, discourse analysis.

### КОММУНИКАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

Аннотация

В статье рассматриваются коммуникативные особенности педагогического дискурса, его лингвистические, социальные, психологические и прагматические характеристики. Анализируются различия между дискурсом и текстом, а также педагогический дискурс как разновидность институционального общения, регулирующего взаимодействие учителя и учащегося. Особое внимание уделяется коммуникативным стратегиям, традиционным и нестандартным особенностям педагогического дискурса, его вербальным и невербальным семиотическим средствам. Результаты исследования показывают значимость педагогического дискурса в организации образовательного процесса, передаче знаний и развитии личности учащихся.

**Ключевые слова:** Педагогический дискурс, коммуникативные стратегии, институциональная коммуникация, вербальные и невербальные средства, дискурсивный анализ.

**Kirish.** Zamonaviy lingvistik taraqqiyoti tilni nafaqat strukturaviy tizim sifatida, balki sotsial, madaniy va kommunikativ hodisa sifatida o'rganishga yo'naltirilgan yondashuvlarni ilgari surmoqda. Fanlararo integratsiyaning kuchayishi natijasida tilning ijtimoiy tabiati, nutqiy faoliyatning vaziyatga bog'liqligi va kommunikativ jarayonlarning murakkabligi yangi tadqiqot yo'nalishlarining shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

So'nggi yillarda lingvistikada diskurs tushunchasi alohida ilmiy kategoriyaga aylandi. Diskurs nutqning ekstralingvistik omillar bilan birgalikda voqelikka tatbiq etilgan shakli sifatida talqin qilinadi. Uning tadqiqi nutqiy faoliyatning ijtimoiy-situativ, kognitiv va pragmatik jihatlarini o'z ichiga oladi.

Pedagogik diskurs - ta'lim muhitida ustoz va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni belgilovchi institutsional diskursdir. U nafaqat bilim berish jarayonining lingvistik ramkalarini, balki pedagogik muloqotning ijtimoiy, madaniy, psixologik va tarbiyaviy komponentlarini ham o'zida mujassam etadi.

**Asosiy qism.** 1. Diskurs tushunchasi va uning lingvistik talqini.

Diskursga doir nazariy qarashlar T.A. van Deyk, M. Fuko, Yu. Habermas, N.D. Arutyunova, V.Z. Demyankov kabi tadqiqotchilar tomonidan keng izohlangan. Diskursni aniqlash va tavsiflash borasida ustuvorlik T. A. van Deykka tegishli. Uning qarashlarida diskurs nutqiy faoliyat sifatida zamonning butun rang-barangligini, nutqiy muloqot ishtirokchilarining individual va ijtimoiy xususiyatlarini, shuningdek, kommunikativ vaziyatning umumiy xarakterini o'zida mujassam etadi [1].

Alohida tadqiqotchilarning diskursni tavsiflashga doir yondashuvlari M. Fuko va Yu. Habermas qarashlari bilan hamohang. Ular kommunikantlar faoliyatini ularning nutqiy, ya'ni diskursiv amaliyotlari doirasida ko'radilar. Bu yondashuv tafakkurning tilga asoslanganligi hamda termin mazmunining u qo'llanadigan faoliyat sohasi bilan bog'liqligi g'oyasiga tayangan. Bunday yondashuvda "diskurs" va "matn" tushunchalarini bir-biriga yaqinlashtirish tendensiyasi kuzatiladi.

Diskurs tushunchasining mazmunini aniqlash hamda uni matn sohasidan farqlash borasida N.D. Arutyunova "Lisoniy ensiklopedik lug'at"da diskursga quyidagicha ta'rif beradi: diskurs -bu nafaqat bog'langan matn, balki unga

qo'shilgan ekstralingvistik, pragmatik, sotsiokultural, psixologik va boshqa omillarning majmui; voqelik bilan bog'liq holda ko'rilgan matn; ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan nutqiy faoliyat, insonlararo o'zaro ta'sirda va ong mexanizmlarida (kognitiv jarayonlarda) qatnashuvchi hodisa. Arutyunovanning fikricha, diskurs – "hayotga singdirilgan nutqdirl[2]", deya eng to'g'ri yondashuv ekanligini ta'kidlaydi.

V.Z. Demyankov, "Amaliy lingvistik va matnni avtomatik qayta ishlash bo'yicha inglizcha-ruscha atamalar lug'ati" muallifi, "diskurs olami"ni quyidagicha umumlashtiradi: diskurs – bu ikki yoki undan ortiq gaplardan iborat bo'lgan matndan tashqari, gapning mustaqil tarkibiy bo'lagi ham bo'lishi mumkin bo'lgan nutq parchasi. U, odatda, bir markaziy konsept atrofida shakllanadi va unda ishtirokchilar, predmetlar, sharoitlar, vaqt, harakatlar kabi elementlarni o'z ichiga olgan umumiy kontekst yuzaga keladi. Bunda diskurs ketma-ket gaplarning oddiy izchilligidan ko'ra, uni yaratuvchi va idrok qiluvchi subyektlar tomonidan birgalikda "barpo etiladigan" umumiy dunyo orqali belgilanadi[3].

Demyankov diskursning tarkibiy qismlarini ham alohida ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, diskurs quyidagi unsurlardan tashkil topadi: bayon qilinayotgan voqealar, ularning ishtirokchilari, performativ axborot hamda "voqega daxldor bo'lmagan elementlar".

Diskursni o'rganish jarayonida siyosiy, gumanitar, diniy, poetik, iqtisodiy, tibbiy, biznes, ommaviy axborot, og'zaki va yozma, dialogik va monologik kabi ko'plab ko'rinishlar uchraydi. Demak, diskursni belgilashda mavzu, soha va muloqot usuli asosiy mezon sifatida maydonga chiqadi.

## 2. Pedagogik diskursning institutsional tabiati.

Pedagogik diskurs aniq bir ijtimoiy muhitda – ta'lim jarayonida shakllanadi. Uning asosiy vazifasi ustoz va talabalar o'rtasidagi samarali kommunikatsiyani ta'minlash, bilim va ko'nikmalarni uzatish, shu bilan birga talabning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga yordam berishdir. Pedagogik diskurs nafaqat verbal (so'zli) va non-verbal (jestlar, piktogramma, grafik elementlar) vositalarni o'z ichiga oladi, balki turli diskursiv strategiyalar – tushuntiruvchi, nazoratchi, sodiqlik, yordamchi va baholovchi orqali o'zining pedagogik maqsadlariga erishadi.

V.I. Karasikning ta'rifiga ko'ra, institutsional diskurs – bu qat'iy ijtimoiy-rol va maqom munosabatlari doirasidagi muloqot bo'lib, u quyidagi turlarga bo'linadi: siyosiy, diplomatik, ma'muriy, yuridik, harbiy, pedagogik, diniy, tibbiy, biznes, reklama, sport, ilmiy, sahnaviy, OAV diskursi va boshqalar[4].

Karasik institutsional diskursni belgilovchi asosiy mezonlari sifatida maqsad va ishtirokchilarni belgilaydi.

Masalan:

- siyosiy diskursning maqsadi: hokimiyatni egallash yoki saqlab qolish;
- pedagogik diskursning maqsadi – jamiyatning yangi a'zosini bilimli qilish;
- tibbiy diskursning maqsadi – bemorga malakali yordam ko'rsatish.

Pedagogik diskursning subyektlari o'qituvchi va o'quvchi, ularga xos bo'lgan munosabatlar esa boshqa institutsional turlardan ko'ra ko'proq shaxsiy omillarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining diskursi ya'ni uning so'zlash uslubi, tinglash madaniyati, yozma va og'zaki nutqi o'quvchining materialni o'zlashtirishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shu bois pedagogning shaxsiy diskursi ustida fikr yuritishi muhimdir.

Pedagogik diskurs bir vaqtning o'zida ilmiy va ta'limiy diskurslar uyg'unligida shakllanadi. Shu bois ilmiy diskurs pedagogik diskursning asosiy resursi sifatida xizmat

qiladi. Pedagogik muloqot mazkur ikki diskursning integratsiyalashgan shaklini namoyon etadi[5]. Hozirgi kunda pedagogik diskurs ko'p madaniyatli, fanlararo muloqot izlanishlari bilan ajralib turadi. U o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bilim hosil bo'ladigan kommunikativ maydonni tashkil etadi.

Pedagogik diskursning asosiy maqsadi jamiyatning yangi a'zosini tarbiyalab, bilim berishdir. Bu maqsad dunyoning tuzilishi, xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini tushuntirish jarayonida, o'quvchidan kutiladigan qadriyatlar va xatti-harakatlarga uni jalb etish, berilgan axborotni qay darajada anglaganini tekshirish, egallangan bilimlarni baholash orqali amalga oshiriladi.

Aynan ushbu maqsad pedagogik diskursning qadriyatlarini ham belgilab beradi. Bu qadriyatlar alohida gaplarda ham, undan kattaroq matn birliklarida ham ifodalanadi. Masalan: "Ajoyib! Juda yaxshi javob berding!", "Asosan hammasini to'g'ri bajargansan", "Ko'rsan, ertaga yana ham yaxshi chiqadi", "Senga ishonaman" kabi ifodalar shunday qadriyatlarni aks ettiradi.

Pedagogik diskurs inson shaxsining shakllanishi va uning ma'naviy dunyosini rivojlantirishga xizmat qiladi. Unda ikki asosiy maqsad birlashadi: o'qitish va rivojlantirish.

## 3. Pedagogik diskursning kommunikativ strategiyalari.

Pedagogik muloqot strategiyalarining tizimi pedagogik jarayonning mazmuni va samaradorligini belgilovchi muhim omildir. Karasik pedagogik diskursda beshta asosiy strategiyani ajratib ko'rsatadi: tushuntiruvchi, baholovchi, nazorat qiluvchi, yordam beruvchi va tashkil etuvchi strategiyalar. Ushbu strategiyalar pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularni jamiyatning ijtimoiy normalariga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega[6].

Tushuntiruvchi strategiya – bu strategiya o'qituvchi tomonidan yangi bilimlarni izohlash, murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazish orqali amalga oshiriladi. Masalan, fizika darsida: "Nur bir nuqtadan tarqaladi va to'g'ri chiziq bo'ylab harakat qiladi. Bu nurning yo'nalishini osonlik bilan lazer yordamida ko'rishimiz mumkin". Ushbu misolda o'qituvchi mavzuni izohlayotgan va o'quvchining tushunishini ta'minlamogda.

Baholovchi strategiya – o'qituvchi o'quvchilarning bilim va faoliyatini baholash, ularni rag'batlantirish yoki tuzatishga yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. Masalan: "Jasur javob berding, fikring to'g'ri va mantiqan asoslangan" yoki "Bu topshiriqda biroz xato qilgansan, keling birga tekshirib chiqamiz". Baholovchi strategiya orqali o'quvchi o'zining bilim darajasini biladi va takomillashtirishga intiladi.

Nazorat qiluvchi strategiya – o'quvchilarni belgilangan qoidalarga va dars jarayoniga rioya qilishga yo'naltiradi. Masalan: "Iltimos, telefonlaringizni chetga qo'ying va diqqatni darsga qarating" yoki "Hamma o'z navbatida javob bersin, bir vaqtning o'zida gaplashmaslik kerak". Bu strategiya darsni tartibli va samarali o'tishini ta'minlaydi.

Yordam beruvchi strategiya – o'quvchilarga bilim olish jarayonida qo'llab-quvvatlash, tushunmagan joylarni izohlash va maslahat berish orqali amalga oshiriladi. Masalan: "Agar matematik masalani tushunishda qiynalayotgan bo'lsang, men bilan birga yechib chiqamiz" yoki "Bu matnni tushunish qiyn bo'lsa, men sizga asosiy fikrlarni ajratib ko'rsataman". Bu strategiya o'quvchining o'zini ishonchli his qilishini ta'minlaydi.

Tashkil etuvchi strategiya – o'quvchilarning faoliyatini tizimli ravishda yo'naltirish, darsni rejalashtirish va guruhlar yoki jamoalarda ishlashni tartibga solish bilan bog'liq. Masalan: "Endi sizlarni 3 kishilik guruhlariga bo'lamiz va har bir guruhga alohida topshiriq beriladi" yoki "Dars oxirida har bir guruh o'z ishini

taqdim etsin". Ushbu strategiya orqali o'quvchilarning faoliyati samarali tashkil qilinadi va o'zaro hamkorlik rivojlantiriladi.

Pedagogik diskurs strategiyalari o'quv jarayonining turli tomonlarini tizimli va maqsadli boshqarishga xizmat qiladi. Har bir strategiya o'quvchilarning bilim, ko'nikma va ijtimoiy malakalarini shakllantirishga hissa qo'shadi, pedagogning faoliyatini esa samarali qiladi.

Pedagogik diskursga xos ikki muhim xususiyat asosiy mezon sanaladi.

1. An'anaviylik. Pedagogik diskursning an'anaviyligi ta'lim jarayonida doimiy ravishda takrorlanadigan, ijtimoiy qabul qilingan xulqiy normalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu xususiyat o'quv jarayonida tartibni, xavfsizlikni va o'rganish samaradorligini ta'minlaydi. Masalan:

O'qituvchi sinfga kirganda o'quvchilarning o'zidan turishi – bu hurmat va intizomning tashqi ko'rinishi bo'lib, ijtimoiy normalarni mustahkamlaydi.

Qo'l ko'tarib so'z so'rash – bu o'quvchilarga navbat bilan fikr bildirish imkonini beradi va auditoriya intizomini saqlashga yordam beradi. Shu tarzda har bir talaba tinglanadi va o'qituvchi faoliyatining nazorat ostida bo'lishi ta'minlanadi.

Doskaga chiqib javob berish – bu interaktiv muloqot va javobgarlikni rivojlantiradi. Masalan, o'quvchi matematik masalani doskada yechayotganda, u nafaqat o'z bilimini ko'rsatadi, balki auditoriyaning e'tiborini qozonadi.

2. Nostandartlik. Nostandart xususiyat pedagogik diskursda diqqatni jalb qilish, ma'lumotni samarali qabul qilish va qiziqish uyg'otish uchun qo'llaniladi. Bu xususiyat an'anaviy tartibga qo'shimcha sifatida pedagogik muloqotni dinamik va samarali qiladi. Masalan:

Ohangdor nutq, masalan, o'qituvchi tarix darsida "O'shanda, qo'llar ko'tarildi va tarix o'z yo'lini boshladi!" deb ta'kidlasa, bu o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi va voqeani yodda saqlashga yordam beradi.

Metaforalar orqali, masalan, biologiya darsida "Immunitet – bu tanamiz qo'riqchisi", "Yurak – tana motori" deb ta'rif berish, mavzuni abstrakt tushunchadan real hayotga yaqinlashtiradi.

Qiziqish uyg'otuvchi usullar, masalan, o'quvchilar ilmiy kashfiyotlarni jonli tajriba qilib ko'radilar, o'zlarini olim yoki detektiv roliga his qilib, mavzuga faol ishtirok etadilar, bu esa o'rganishni yanada interaktiv va esda qolarli qiladi.

N.S. Ostrajkova pedagogik diskursni bir qator ko'rinishlarga ajratadi, ularning har biri o'ziga xos kommunikativ xususiyatlar va maqsadlarga egaligini ta'kidlab o'tadi[7]. :

Didaktik diskurs – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi og'zaki muloqot bo'lib, u dars jarayonida bilim berish va qabul qilish, shuningdek, o'quv faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi.

Akademik diskurs – ilmiy-pedagogik matnlarni (monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalar) va pedagogika sohasidagi ma'ruzalarni o'z ichiga oladi. Ushbu diskurs nazariy bilimlarni shakllantirish va uzatishga yo'naltirilgan.

Publitsistik pedagogik diskurs – ta'lim sohasidagi muammolar va masalalarni ommaviy axborot vositalarida yorituvchi matnlarni o'z ichiga oladi. Bu turdagi diskurs jamiyatda ta'lim jarayonlariga oid ongni shakllantirish va muhokama yaratishga xizmat qiladi.

Sotsializatsion diskurs – o'quvchilar va ularning o'ta-onalari o'rtasidagi muloqot, bunda asosiy vazifa o'quvchilarni ijtimoiy muhitga moslashtirish va ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam berishdir.

Maxsus pedagogik diskurs – pedagogik bilimlar va yondashuvlarning boshqa fanlar va sohalarda (psixologiya, kriminologiya, tibbiyot va boshqalar) amaliy qo'llanilishini bildiradi. Ushbu diskurs, odatda, interdisipliner xarakterga ega bo'lib, pedagogik bilimlarni boshqa sohalarning ehtiyojlariga moslashtiradi.

Pedagogik diskursda verbal va non-verbal belgilar muhim ahamiyatga ega[8].

Verbal belgilar: so'zlar, jumlar va frazeologik birliklar. Masalan:

"Birinchisi misolni yechamiz"

"Har biringiz o'z fikringizni ayting"

Noverbal belgilar: imo-ishora, mimika, grafik elementlar va piktogrammalar. Masalan: ustoz qo'l ishoralari bilan e'tiborni jamlash, diagrammalar orqali mavzuni vizual tushuntirish.

Turg'un birliklar: darsda takrorlanuvchi iboralar va tuzilmalar[9], masalan:

"Keling, birgalikda ko'rib chiqamiz"

"Xato qilgan bo'lsangiz, qayta urinib ko'ring"

Pedagogik diskurs o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy, lingvistik va psixologik jarayonni aks ettiradi. Pedagogik diskursda ustoz matni talabalar matni bilan integratsiyalashadi, lekin o'z mustaqil strukturasi ham mavjud. Nutq, imo-ishora va vizual vositalar sinxronlashadi, bu esa o'quv jarayonini interaktiv va samarali qiladi.

**Xulosa.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, pedagogik diskurs o'qituvchining nutqiy faoliyati emas, balki barcha ishtirokchilar o'quvchilar va pedagoglarning birgalikdagi semiotik faoliyatidir. Diskurs, bir tomondan, o'quv materiallarini yetkazish va tushuntirish vositasi bo'lsa, boshqa tomondan, u ijtimoiy rollarni belgilovchi va o'quv jarayonini muvofiqlashtiruvchi muloqot platformasidir. Shunday qilib, pedagogik diskurs bu murakkab, ko'p qirrali va kontekstga bog'liq muloqot jarayoni bo'lib, u nafaqat bilim yetkazish, balki o'quvchilarni ijtimoiylashuv va shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik diskurs strategiyalarini samarali qo'llash orqali dars jarayonini optimallashtirish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va pedagogik maqsadlarga erishish mumkinligini ko'rsatdi. Pedagogik diskursni chuqur tahlil qilish ta'lim amaliyotini takomillashtirish bilan birga, lingvodidaktik tadqiqotlar uchun yangi nazariy asos yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Дейк, Т.А. Ван. Критический анализ дискурса / Т.А. ван Дейк // Пер. с англ. // Перевод и лингвистика текста / Translation Text Linguistics: Сб. статей. М, 1994.
2. Арутюнова, Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. М, 1990.
3. Демьянков, В.З. Доминирующие лингвистические теории в конце XX века / В.З. Демьянков // Язык и наука к. XX века. М, 1995.
4. Карасик, В.И. Характеристики педагогического дискурса / В.И. Карасик // Языковая личность: аспекты лингвистики и лингводидактики. Волгоград, 1999.
5. Гедз, С.Ф. Коммуникативно-прагматические особенности высказываний с интеррогативным значением в современном английском языке [Текст] / С.Ф. Гедз // Автореф. дис. канд. филол. наук. Киев, 1998.
6. Карасик, В.И. Характеристики педагогического дискурса / В.И. Карасик // Языковая личность: аспекты лингвистики и лингводидактики. Волгоград, 1999.
7. Бабаходжаева Л.Г. Practice, Талабаларнинг педагогик компетентлигини ривожлантириш жараёнида аралаш таълим моделини жорий этишнинг назарий ва амалий асослари / пед. фан. бўй. докт. (DSc) дисс...автореф. Чирчик. 2021. -Б. 17.
8. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.
9. Карасик В.И. Институциональный дискурс // Дискурс как социальная деятельность. – М., 2000.